



THE IMPORTANCE OF SPIRITUAL VALUES TODAY

Lola Saodatova
Independent researcher

ABOUT ARTICLE

Key words: Spiritual values, national and universal values, moral image of a person, cultural development, spiritual and moral values, moral code, social activity, socialization, innovation, innovative activity.

Received: 01.07.25

Accepted: 02.07.25

Published: 03.07.25

Abstract: The article focuses on the essence of the renewal process in the field of spiritual values, on the fact that the spiritual values created by our great ancestors are a powerful source of modern progress, and on issues aimed at accelerating the social development of society.

МА’НАВИЙ КАДРИЯТЛАРНИНГ БУГУНГИ КУНДАГИ АХАМИЯТИ

Lola Saodatova
Mustaqil tadqiqotchi

МАҚОЛА НАҚИДА

Kalit so‘zlar: Ma’naviy qadriyatlar, insonning axloqiy qiyofasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ma’naviy-axloqiy qadriyat, ma’naviyat kodeksi, madaniy taraqqiyot, ijtimoiylashuv, ijtimoiy faollik, innovatsiya, innovatsion faoliyat.

Annotatsiya: Maqolada, ma’naviy qadriyatlar sohasidagi yangilanishlar jarayonining mazmun-mohiyatiga, ulug‘ ajodolarimiz tomonidan barpo etilgan ma’naviy meros bugungi taraqqiyotning kuchli asoslaridan biri ekanligiga hamda jamiyatning ijtimoiy rivojlanishini tezlashtirishga yo‘naltirilgan masalalarga alohida e’tibor qaratilgan.

ЗНАЧЕНИЕ ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ СЕГОДНЯ

Лола Саодатова
Независимый исследователь

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Духовные ценности, национальные и общечеловеческие ценности, нравственный образ человека, культурное развитие, духовно-

Аннотация: В статье акцентируется внимание на сущности процесса обновления в сфере духовных ценностей, а также на том, что духовные ценности,

нравственные ценности, нравственный кодекс, социальная активность, социализация, инновации, инновационная деятельность.

созданные нашими великими предками, являются мощным источником современного прогресса, и на вопросах, направленных на ускорение социального развития общества.

Mamlakatimiz mustaqilligining rivojlanish konsepsiyalari, davlat dasturlarida iqtisodiyot, ijtimoiy sohalar ichki va tashqi siyosat masalalari bilan birligida ma’naviyatga ham ustuvor ahamiyat qaratilgan. Prezidentimiz

Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi –ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya’ni, bozor tamoyillariga asoslangan, kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga asoslangan kuchli ma’naviyatga tayanamiz”[1].

Ma’naviy qadriyatlar yo‘nalishidagi yangilanishlar jarayonining mazmuni va mohiyatini, uning o‘ziga xos tomonlarini aniq faktlar asosida tahlil qilish, shuningdek, ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning madaniy-ma’rifiy asoslarini tushunib yetish muhim ahamiyat kasb etadi. Ulug‘ bobokalonlarimiz tomonidan asos solingan qadriyatlar xalqimizning ma’naviy o‘sishining kuchli manbai bo‘lib xizmat qiladi. Umuminsoniy va milliy qadriyatlar esa yangi O‘zbekistonda shakllanayotgan fuqarolik jamiyatining asosiy poydevorini tashkil etadi. Shu bilan birga, ma’naviy qadriyatlarni chuqur his qilish va ular haqida puxta bilimga ega bo‘lish zaruriy fazilatdir.

“Ma’naviy qadriyatlar” insonning axloqiy-ma’naviy qiyofasi, ijtimoiy turmush, tafakkur va munosabatlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan, jamiyatning rivojlanishi va yashash tarzining ta’siri ostida shakllangan ma’naviy fazilat va belgilarining umumbashariy hamda milliy xarakterdagи ko‘rinishlarini ifodalovchi tushunchadir”[2].

Ma’naviy qadriyatlar ijtimoiy-tarixiy va madaniy taraqqiyot jarayonida shakllanadi, takomillashib boradi hamda boyiydi. Shu tarzda milliy madaniyat yuksaladi. Bu jarayonda ma’naviyat sohiblari, jumladan olimlar, yozuvchilar va ziyorolar milliy tafakkur, milliy ruhiyat va milliy o‘ziga xoslikni ta’minlash hamda rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Buyuk ajdodlarimiz Imom Buxoriy,

At-Termiziyy, Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, G‘ijduvoniy, Naqshband, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy kabi ulug‘ shaxslarning bizga meros bo‘lib qolgan bebahо ma’naviy-ma’rifiy hamda ilmiy boyliklari nafaqat xalqimiz, balki butun insoniyat madaniy merosida munosib o‘rin egallab, ezgulikni targ‘ib etishda, har tomonlama yetuk insonlarni voyaga yetkazishda xizmat qilib kelmoqda. Shunday ekan, yuksak ma’naviy fazilatlarni o‘zida mujassam etgan bu buyuk siymolar biz uchun doimo komillik va pishiq yetuklik timsoli bo‘lib qolgan.

Abu Rayhon Beruniy (973–1048) qamrovli bilimga ega olim sifatida qadriyatlar mohiyatini chuqur tahlil qilgan. Uning qarashlariga ko‘ra, ma’naviy qadriyatlarning paydo bo‘lishi jamiyatdagi o‘zaro aloqalar, insonlarning hayot tarzi, moddiy ehtiyojlari, manfaatlari, qiziqishlari va intilishlari bilan bevosita bog‘liqdir. Masalan, insonlar o‘rtasidagi hamkorlik, jipslikka intilish bu ulardagi o‘zaro yaqinlashuv zarurati, mudofaa vositalarining cheklangani va dushman tahdidiga qarshi o‘zini himoya qilish ehtiyoji bilan shakllangan. Beruniyning nuqtai nazariga ko‘ra, insonning o‘zi eng asosiy qadriyatlardan biri hisoblanadi, tafakkur esa uni boshqa mavjudotlardan ajratib turuvchi ma’naviy belgi sanaladi.

Abu Rayhon Beruniy (973–1048) ensiklopedik bilim egasi sifatida qadriyatlar tabiatini bilan chuqur shug‘ullangan. Unga ko‘ra, “ma’naviy qadriyatlarning shakllanishi ijtimoiy aloqalar, insonlarning turmush tarzlari, moddiy zaruratlar, qiziqishlari, manfaatlari, ehtiyoj va maqsadlari bilan uzviy bog‘langan. Masalan, insonlar o‘rtasidagi o‘zaro hamjihatlik ularning birlashishga bo‘lgan ehtiyoji, mudofaa vositalarining yetarli emasligi va dushman xavfiga qarshi birgalikda harakat qilish zaruriyati tufayli vujudga kelgan”[3].

Beruniy insonni eng asosiy qadriyatlarning biri sifatida ko‘radi, tafakkurni esa uni boshqa tirik mavjudotlardan ajratib turuvchi ma’naviy mezon deb hisoblaydi. U ma’naviy qadriyatlар tizimini o‘ziga xos uslubda bayon qiladi, ya’ni ularni ijobiy va salbiy odatlarga ajratadi. Uning qarashlariga ko‘ra, ijobiy fazilatlarga rostlik, adolat, donishmandlik, mardlik, jasorat va saxovat kabi qadrlanadigan xislatlar; salbiy qusurlarga esa yolg‘onchilik, zulm, firibgarlik, o‘g‘rilik, hiylakorlik va nomardlik singari illatlar kiradi.

Qadriyatlар masalasi Abu Ali ibn Sino (980–1037 yy.) tafakkurida ham muhim o‘rin egallagan. U inson va uning ma’naviy-axloqiy qadriyatlardagi o‘rniga alohida e’tibor qaratgan. Uning fikricha, insonning qadri — uning boshqalar bilan hamkorlikka intilishi, yuksak axloqiy xislatlarni egallahsga bo‘lgan harakati, donoligi va atrofdagilarga yaxshilik qilish salohiyatida namoyon bo‘ladi. Faylasuf nuqtai nazarida, yaxshilik insonni zavq va rohatga, yomonlik esa iztirob va azobga yetaklaydi. Ibn Sino o‘zining “Axloq ilmi haqida risola” asarida “iffat”, “shijoat”, “hikmat”, “adolat”, “saxovat” kabi insoniy-ma’naviy qadriyatlarni sharhlab bergen.

Insoniyat tarixida muhim ahamiyat kasb etgan ma’naviy qadriyatlardan biri bu Markaziy Osiyoda XI–XVII asrlar mobaynida keng rivoj topgan tasavvuf falsafasidir. Tasavvufiy qarashlarda insonning ichki dunyosini tahlil qilish, uning ruhiy yetuklikka erishish yo‘llarini belgilovchi g‘oyalar ustunlik qiladi. Har bir tasavvuf tariqati o‘z zamonasining mahsuli, mavjud ijtimoiy-madaniy sharoit, ehtiyoj va imkoniyatlarning in’ikosi sifatida shakllangan.

Ahmad Yassaviy (1105–1166 yy.) o‘z davri uchun mos keladigan

ma’naviy-axloqiy qadriyatlar tizimini barpo etgan bo‘lib, u bu qadriyatlarning namoyon bo‘lishi va amalda qo‘llanishini islomiy tafakkur nuqtai nazaridan yoritib bergen[4]. Ahmad

Yassaviyning “Devoni hikmat” asarida ma’naviy qadriyatlarning asosiy ko‘rinishlari bo‘lgan poklik, or-nomus, sabr-toqat, matonat, muloyimlik, beozorlik, kamtarlik kabi xislatlarga keng izoh berilgan. Yassaviy tariqati Sharq xalqlari orasida keng yoyilgan bo‘lib, u umumiy madaniy merosimizga katta ta’sir o’tkazganini inkor etib bo‘lmaydi.

Bizning nazarimizda, Yassaviy ta’limoti va o’sha davrda shakllangan ma’naviy qadriyatlar mustaqil davlat barpo etish va unda siyosiy jarayonlarni boshqarishda asosiy g‘oyaviy tamoyillardan biri bo‘lib xizmat qilgan. Shu bilan birga, bu ta’limot mo‘g‘ullar istilosidan avvalgi qadriyatlar bilan keyingi tarixiy bosqichlarni bog‘lab turuvchi ma’naviy halqa vazifasini bajargan.

Shunday ekan, bu qarashlar o‘z zamonasining ijtimoiy-madaniy kayfiyatini aks ettirgani, bugungi kunda ham ma’naviy yuksalishga ijobiy ta’sir ko‘rsata olishi sababli ular milliy chegaralardan ustun bo‘lgan umuminsoniy qadriyatlar sirasiga kiradi.

Bugungi sharoitda ma’naviy sohadagi jarayonlarni huquqiy mexanizmlar bilan tartibga solish, bu borada Yangi O‘zbekistonning ma’naviy ehtiyojlarini hisobga olish zaruratga aylandi. Shu asosda mamlakatimiz kelajagini belgilovchi dasturiy hujjatlarda ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishlarda olib borilayotgan islohotlarga alohida urg‘u berish muhim vazifaga aylangan.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining 5-jo‘nalishida
ma’naviy-ma’rifiy sohadagi keng qamrovli faoliyatimizning mazmuni, asosiy tamoyillari va ustuvor vazifalari belgilab berilgan bo‘lib, bu hujjat biz uchun normativ asos sifatida xizmat qiladi.

Shundan kelib chiqib, “O‘zbekiston Respublikasining ma’naviyat sohasidagi davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonunni ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish ishlarini jadallashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu qonun yangi O‘zbekistonni qurishda davlat siyosatining ma’naviy yo‘nalishdagi faoliyatini kengaytirish, yangilanishlarga huquqiy zamin yaratish, ijtimoiy-ma’naviy hayotdagи o‘zgarishlar sur’atini tushunishga yordam beradi.

Bundan tashqari, bu qonun jamiyatda barcha sohalarda amalga oshiriladigan islohotlar natijalarini, ularga doir huquqiy muammolarni tahlil etishda ham muhim o‘rin tutadi.

Shu bilan bir qatorda, ma’naviy-ma’rifiy sohadagi keyingi faoliyat yo‘nalishlari, uning salmog‘i va ta’siri, amalga oshirilayotgan ishlarning natijadorligini oshirish zarurati “O‘zbekistonning 2025–2035 yillarga mo‘ljallangan ma’naviy taraqqiyot strategiyasi”ni ishlab chiqish va uni davlat siyosatining ajralmas tarkibiy qismiga aylantirish vazifasini dolzarb qilib qo‘ymoqda.

Agar ushbu strategiya ishlab chiqilsa, shu asosda barcha davlat muassasalari, nodavlat tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari o‘z “Yo‘l xarita”larini tuzib, istiqbolga mo‘ljallangan dasturlarni hayotga tatbiq etish imkoniga ega bo‘ladi.

Yuqorida tilga olingan masalalar, o‘z navbatida, mamlakatimiz

ma’naviy-ma’rifiy hayotining asosiy tamoyillarini aks ettiruvchi hujjatlar to‘plami – “O‘zbekiston jamiyatining ma’naviyat kodeksi”ni ishlab chiqishni zarur qiladi. Bu vazifani imkon qadar tez muddatda hayotga tatbiq etish zamon talabi bo‘lib bormoqda.

Chunki bunday axloq kodeksi yurtimizda BMT tomonidan 2022-yilda qabul qilingan huddi shu mazmundagi hujjat mohiyatiga asoslangan holda ish yuritilayotganini ko‘rsatadi. Shuningdek, “Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy ma’naviy tadqiqotlar instituti faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaror ijrosida samaradorlikka erishish lozim”[5]. Yuqorida tilga olingan me’yoriy hujjatlar va dasturiy yo‘nalishlarning samarasini ta’minlash, ularning xalqimiz orzu-umidlariga mos kelishini kafolatlash, bu borada mas’uliyat yuklangan rahbarlar hamda boshqaruv tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlarning o‘z vazifalarini vijdonan ado etishlariga ham bog‘liqdir. Bugungi kunda mamlakatimizda mazkur sohaga oid islohotlarning samarali amalga oshishi uchun zarur sharoitlar yaratilgan. Chunki iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jabhalarda bo‘layotgan o‘zgarishlar singari, xalqimizning ma’naviy-ma’rifiy hayotida ham jadal taraqqiyot, katta yangilanishlar kuzatilmogda.

Biroq insonlarning yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va tafakkuri birdaniga o‘zgarib qolmaydi, ularning ma’naviy-axloqiy qarashlarini o‘zlashtirish va yangilash murakkab va vaqt talab qiluvchi jarayon hisoblanadi.

Zamonaviy davrning yuqori talablariga mos keladigan, yangicha fikrlash va dunyoqarash tarzining jamiyatda chuqur ildiz otishi, mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy voqeliklardan muntazam xabardor bo‘lgan, jamoatchilik fikrini anglay oladigan va unga munosib ravishda yondasha oladigan ongli shaxslarni shakllantirish uchun milliy qadriyatlar sohasida olib borilayotgan ishlarga yanada jadallik kiritish, ularning ko‘lamini kengaytirish zarur.

Buning sababi shundaki, XXI asr insoniyat tarixida ilgari kuzatilmagan ilmiy-texnik yutuqlar, innovatsion yangiliklar asriga aylanmoqda. Ilgari biror yangilikni amaliyotga joriy etish uchun o‘nlab, hattoki yuz yil kerak bo‘lgan bo‘lsa, bugungi raqamli zamonda bu muddat 10–20 yil, ayrim hollarda atigi 2–3 yilga qisqarmoqda. Mavjud bilimlar sohasi shu qadar kengayib ketdiki, axborot oqimining keskin ortishi ushbu jarayonning “tezlashuvi”ga sabab bo‘ldi va bu holat “axborotlashgan jamiyat” tushunchasi bilan ifodalanmoqda.

Albatta, bu holat jamiyat hayotining barcha jabhalarida keng imkoniyatlar eshigini ochib bergani holda, shu bilan birga bugungi zamon kishisining “axborot bosimi” dan himoyalanish zaruratini ham yuzaga chiqarmoqda. Bu esa zamonaviy yoshlарimizdan yuqori darajadagi aqliy salohiyat, keng tafakkur va teran idrokni talab etadi. Zero, O‘zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Innovatsiya kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan

boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak”[6].

Bugungi jamiyatimizning ijtimoiy yo‘nalishlarida yuz berayotgan turli o‘zgarishlar, yangilanish va islohotlar, eng avvalo, ijtimoiy rivojlanish sur’atlarini tezlashtirishga qaratilgan. Ushbu ijtimoiy jarayonlar va hodisalar yuzaga chiqishining zamirida, xususan, yosh avlodda fuqarolik faolligi sifatlarini shakllantirish masalasi ham muhim o‘rin egallaydi.

Yoshlarning ijtimoiy faolligi nafaqat ularning jamiyatga moslashuvi va integratsiyasining muhim bosqichi, balki mustahkam irodani tarbiyalash, o‘zini anglash hamda o‘ziga bera olish kabi shaxsiy kamolot mezonlari orqali ifodalanadi. Yoshlarga kelajagimiz egalari sifatida munosabatda bo‘lish, ularni ishonch va umid ruhida tarbiyalash taraqqiyot yo‘lida alohida ahamiyat kasb etadi. Shuni inobatga olib, hozirgi kunda insoniyat zamonaviy texnologik yutuqlardan oqilona foydalanish madaniyatini shakllantirishi zarur bo‘lib qolmoqda. Ilm-fan va texnika taraqqiyotining imkoniyatlaridan to‘g‘ri va samarali foydalanish esa bugungi kunning asosiy talablaridan biridir.

Davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Bugungi sharoitda jahon ilm-fani va innovatsion faoliyatda erishilgan yutuqlardan keng ko‘lamda foydalanish jamiyat va davlat hayotining barcha jabhalarini barqaror va tizimli rivojlantirish, mamlakatning porloq kelajagini yaratishning muhim omiliga aylanmoqda”[7].

Ayni vaqtida, ushbu o‘zgarishlar millatimizning ezgu orzu-tilishlariga to‘laqonli javob berishi uchun javobgar bo‘lgan boshqaruv tizimi va rahbarlik strukturalarining o‘z zimmasidagi vazifalarni aniq va mas’uliyat bilan ado etishi alohida dolzarb ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, “ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy-ma’rifiy islohotlarning insonlar turmush darajasini oshirishga xizmat qilishi, shuningdek, qadriyatlar tizimining takomiliga yetishiga xizmat qiluvchi omillar sifatida ularning ta’sir kuchini kuchaytirish zamon talabi bo‘lib, hozirgi davrning eng asosiy va dolzarb vazifalaridan biriga aylangan”[8].

O‘zbekistonning porloq va buyuk istiqboli, eng avvalo, fuqarolarning, ayniqsa yosh avlodning milliy hamda umumbashariy qadriyatlarga sadoqat hissini mustahkamlash, ularning ma’naviy dunyosini boyitish bilan chambarchas bog‘liq ekanligi shubhasiz. Bu borada rivojlanish mezonlariga tayanch bo‘la oladigan muhim omillar mavjud bo‘lishi, ushbu imkoniyatlarni shakllantirish masalasiga alohida e’tibor qaratish zarurdir. Bugungi kunda yurtimizda mazkur yo‘nalishda taraqqiyot uchun muhim zamin – zarur moddiy-texnik asos barpo etilgan bo‘lib, bu soha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida yanada e’tibor markaziga aylangan.

Yuqoridaagi keltirilgan fikr va mulohazalar asosida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat taraqqiyot kafolati bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekistonning istiqbolda yuksak taraqqiyotga erishishi fuqarolarning, ayniqsa yosh avlodning

milliy va umumbashariy qadriyatlarga sodiqligiga bevosita bog‘liqdir. Bu qadriyatlar ijtimoiy birdamlikni mustahkamlaydi va ma’naviy uyg‘onish uchun zamin yaratadi.

2. Ma’naviyatni rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida doimiy e’tiborda qoladi. Yoshlarning ma’naviy saviyasini yuksaltirish va ularni axloqiy barkamollikka yetaklash davlat siyosatining asosiy maqsadlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ma’naviy yuksalish sog‘lom jamiyat asosidir.

3. Barqaror rivojlanish uchun asosiy shart zarur infratuzilma hisoblanadi. Ushbu sohada barqaror taraqqiyotni ta’minalash uchun moddiy-texnik baza va tashkiliy asoslar muhim omil sanaladi. O‘z navbatida, mavjud infratuzilmalar ma’naviy-ma’rifiy ishlarni samarali tashkil etishga xizmat qilmoqda.

4. Davlat e’tibori ijtimoiy yangilanishning kuchli omilidir. Mazkur yo‘nalishga davlat miqyosida berilayotgan e’tibor tufayli yoshlarning ongida vatanparvarlik, fuqarolik mas’uliyati, tarixiy xotira va ma’naviy uyg‘onish ruhi tobora mustahkamlanmoqda.

5. Yangi avlod tarbiyasida qadriyatlar hal qiluvchi o‘rin tutadi. Kelajagimiz egalari bo‘lgan yoshlarni zamonaviy bilimlar, innovatsiyalar bilan birga, milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash ularning to‘laqonli shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Bu esa jamiyat taraqqiyotining barqaror va uzlusiz bo‘lishini kafolatlaydi.

Ushbu xulosalar asosida quyidagi tavsiyalarni berib o‘tishni lozim topdik:

1. Qadriatlarga sodiqlikni mustahkamlovchi ta’limiy dasturlarni kengaytirish kerak. Yoshlarning milliy va umuminsoniy qadriatlarga hurmatini oshirish uchun umumta’lim maktablari, kasb-hunar va oliy o‘quv yurtlarida ma’naviyatga oid maxsus kurslar, tarbiyaviy mashg‘ulotlar va amaliy loyihalarni yo‘lga qo‘yish zarur.

2. Ma’naviy-ma’rifiy muhitni yanada boyitish lozim. Mahallalarda, madaniyat markazlarida, kutubxonalarda yoshlar uchun ma’naviyat, axloq, tarixiy meros, odob-axloq mavzularida davra suhbatlari, uchrashuvlar, seminar-treninglar tashkil qilish yanada takomillashtirilishi maqsadga muvofiq.

3. Infratuzilmani kuchaytirish orqali barqaror ta’limni ta’minalash zarur. Ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishdagi muassasalarini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, yoshlar markazlari, madaniyat saroylari va axborot-resurs markazlarining salohiyatini oshirish maqsadga muvofiq.

4. Davlat va jamiyat hamkorligini yanada kuchaytirish shart. Davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat notijorat tashkilotlari o‘rtasida uzviy hamkorlik o‘rnatilib, ma’naviy tarbiya sohasidagi tashabbuslar qo‘llab-quvvatlanishi va keng ommaga yetkazilishi katta qadam bo‘lar edi.

5. Yoshlarni innovatsiya va qadriyatlar uyg‘unligida tarbiyalash dolzarb ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalar va yangiliklardan foydalanishni milliy qadriyatlar bilan

uyg‘unlashtirgan holda yoshlar orasida axborot madaniyatini oshirish, axborot xurujlaridan himoyalanish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilishi lozim.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh. Mirziyoyev. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. –B.261.
2. Q. Nazarov, X. To‘xtayev. “Aksiologiya: qadriyatlar falsafasi”. – Toshkent: Universitet, 2022.
3. I. Mo‘minov. “O‘zbekistondagi tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixidan lavhalar (IX-XX asrning boshlarigacha)”. – T.: Fan, 1999.
4. Ahmad Yassaviy. “Hikmatlar”. – Toshkent, 1991. – B. 51.
5. A. Муминов. «Leading tendencies in the development of cultural and spiritual identity of the peoples of Uzbekistan» Журнал: Scienceweb academic papers collection, 2020, №1, P. 5525-5538.
6. “Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy ma’naviy tadqiqotlar instituti faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. www.lex.uz.
7. Sh. Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. - Toshkent, 2018. – B. 9-20.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/acts-3431985>